

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA MONTESSORI METODIKASIDAN FOYDALANISH.**

*Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti*

***Asqarova Dilorom Qurbonovna***

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda Montessori metodikasining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Montessori metodikasining asosiy tamoyillari, o'quv jarayonida bolalarning mantiqiy fikrlashini shakllantirishda qo'llanilishi va uning samaradorligi to'g'risidagi ma'lumotlar va amaliy faoliyatlar yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Montessori metodikasi, mantiqiy fikrlash, maktabgacha yosh, rivojlanish, ta'lim jarayoni.

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль и значение метода Монтессори в развитии способностей логического мышления дошкольников в дошкольных образовательных организациях. Освещены основные принципы метода Монтессори, его применение при формировании логического мышления детей в образовательном процессе и сведения о его эффективности, а также практической деятельности.

**Ключевые слова:** методика Монтессори, логическое мышление, дошкольный возраст, развитие, образовательный процесс.

**Abstract:** This article analyzes the role and importance of the Montessori methodology in developing the logical thinking skills of preschool children in preschool educational organizations. The basic principles of the Montessori methodology, its application in the formation of children's logical thinking in the educational process, information and practical activities are covered.

**Keywords:** Montessori methodology, logical thinking, preschool age, development, educational process.

### **Kirish**

Maktabgacha yosh – bolaning shaxsiy va aqliy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarda mantiqiy fikrlashning asosiy ko'nikmalari shakllanadi. Bolaning atrof-muhitni tushunishi, sabab-oqibat aloqalarini anglash qobiliyati va mustaqil fikr yuritishi mantiqiy fikrlash asosida rivojlanadi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi sifatida Montessori yondashuvi o'zining individual yondashuvi, bolani mustaqil faoliyatga undashi va tabiiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashi bilan ajralib turadi.

Montessori metodikasi – italyan pedagogi Mariya Montessori tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bolalarni mustaqil o‘rganish va o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Ushbu metodika bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda o‘zining tizimli va amaliy yondashuvi orqali samarali natijalar beradi.

Asosiy qism. Montessori metodikasining asosiy tamoyillari. Montessori metodikasining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Mustaqillik va erkinlik: o‘rib kelayotgan bola uchun o‘zining individual qiziqishlariga ko‘ra faoliyatni mustaqil tanlash imkonini beradi. .
- Amaliy hayotga tayyorlash: bola uchun tashkil etilgan o‘yin va mashg‘ulotlar bolaning real hayotga tayyorlanishi bilan amali ahamiyatga ega.
- Sensorika rivoji: Bola tashqi muhitni idrok etish orqali mantiqiy fikrlash asoslarini shakllantirishga erishishimiz mumkin.
- Individual yondashuv: Har bir bolaning rivojlanish sur‘atini hisobga olish.
- Tartib va strukturaga rioya qilish: Tashkiliy yondashuvlar bolada tizimli fikrlash jarayonini shakllantiradi.

Montessori metodikasi va mantiqiy fikrlash. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- Muammoli vazifalarni yechish: Montessori metodikasida bolalarga real hayotdagi muammolarni hal qilish uchun amaliy topshiriqlar taqdim etiladi.
- Tajriba va kuzatuv: Bolalar mustaqil ravishda tajribalar o‘tkazib, sabab-oqibat aloqalarini tushunishga o‘rganadilar.
- Tartib va tizimlilik: Montessori materiallari bolani o‘z fikrini aniq va mantiqiy bayon etishga o‘rgatadi.
- Analitik va kritik fikrlash: Montessori metodikasi orqali bolalar mustaqil qaror qabul qilish, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Amaliyotda qo‘llash tajribalari. Montessori metodikasini amaliyotda qo‘llashda quyidagi usullar tavsiya etiladi:

- Matematik tushunchalarni shakllantirish: Maxsus Montessori materiallari yordamida son tushunchasi, hisoblash va geometrik shakllar bilan ishlash orqali mantiqiy fikrlash rivojlantiriladi.
- Til va nutq rivoji: Til o‘yinlari va matnlarni tahlil qilish orqali bolalar so‘z va tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni anglaydilar.
- Konstruktor va mozaikalar: Qurilish va tuzilish topshiriqlari bolalarda makoniy fikrlash va muvofiqlikni tushunishga yordam beradi.
- Eksperimental faoliyat: Oddiy ilmiy tajribalar orqali sabab-oqibat munosabatlarini tushunish rivojlanadi.

Montessori metodikasining afzalliklari. Montessori metodikasi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagi afzalliklarini ko‘rishimiz mumkin.

Bola o'z qiziqishlari asosida bilim oladi bu esa bolada mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmalari shakllanadi. Bundan tashqari bu kabi amaliy mashg'ulotlar tizimli va tahliliy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan mutaxassislarimiz bolada mustaqil fikr yuritish, bu orqali bolada mustaqillik va mas'uliyat hissini ham rivojlantirishga erishishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Montessori metodikasi maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali metodlardan biri hisoblanadi. Metodikaning individual yondashuvi, amaliy mashg'ulotlarga asoslanganligi va tizimli rivojlanish tamoyillari bolalarda mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi mutaxassis kadrlar o'z faoliyatlarida Montessori metodikasidan foydalanishlari orqali nafaqat bolaning aqliy salohiyatini, balki uning shaxsiy sifatlarini ham rivojlantirishda ham samarali natijaga erishishlari mumkin va bu ta'lim-tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Montessori, M. (2020). Bola ongini ochish. Toshkent: Yangi asr nashriyoti.
2. Xudoyberganova, M. (2019). "Maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion metodikalar". Pedagogika va psixologiya jurnali, 2(45), 23-30.
3. Karimova, D. (2021). "Maktabgacha yoshdagi bolalar mantiqiy fikrlashini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar". Ta'lim va rivojlanish ilmiy jurnali, 4(12), 15-22.
4. Lillard, A. S. (2017). Montessori: The Science Behind the Genius. Oxford University Press.
5. Mahmudova, S. (2018). "Montessori metodikasining maktabgacha ta'limda qo'llanilishi". Ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 5(1), 67-72.
6. Asranbayeva, M. (2024). Kasbiy refleksiya o'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning muhim omili sifatida. Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali.
7. Asranbayeva, M. H. (2024). INKLYUZIV TA'LIM TIZIMIDA IMKONIYAT CHEKLANGAN O'QUVCHILARNI O'QITISHGA LINGVOPEDAGOGIK YONDASHUV. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 331-336.
8. Abduqodirov, A. A. O. G. L., & Kamolova, A. O. Q. (2025). Muzeylarning inson ongiga ta'siri va ijtimoiy roli. Science and Education, 6(3), 191-194.
9. Kamolova, A. (2024). KASBIY KASALIKLARNI OLDINI OLISHDA VA OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING SALOMATLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. "PEDAGOGICAL ACMEOLOGY" xalqaro ilmiy-metodik jurnali , 16 (8).